



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 158 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarining mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari	110
<i>Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz</i>	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	113
<i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
<i>Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvajon Xamidbek qizi</i>	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
<i>Quronova Ismigul Xolmurod qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	126
<i>Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi</i>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
<i>Sanayeva Surayyo Bobonazarovna</i>	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari	139
<i>Shukurova Sevara Ilhomovna</i>	
Improving High Jump Techniques	143
<i>Tajimbetov Anvar Tengelbayevich</i>	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari	146
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekturodovna</i>	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников	149
<i>Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи</i>	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
<i>Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи</i>	

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI GIPERAKTIV BOLALARGA TA'LIM BERISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK USULLARI

Jo'rayeva Nargiza Toirovna

Nizomiy nomidagi O'ZMPU,
Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasida dotsenti, PhD

Kamalova Sarvinoz

Nizomiy nomidagi O'ZMPU,
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistri

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik va psixologik usullarini o'rganish jarayoni yoritilgan.

Kalit so'zlar: giperaktivlik, ijtimoiy, hissiy, o'g'il, qiz, jamiyat, ta'lim, tarbiya, uslub, metodika, diagnostika, multimodal, kognitiv, art-terapiya, psixolog, fiziologik, impulsiv, diqqat, bolalar, maktab, konsentratsiya.

Abstract: The article describes the process of studying pedagogical and psychological methods of teaching hyperactive preschool children.

Key words: hyperactivity, social, emotional, boy, girl, society, education, upbringing, method, technique, diagnostics, multimodal, cognitive, art therapy, psychologist, physiological, impulsive, attention, children, school, concentration.

Аннотация: В статье описывается процесс изучения педагогических и психологических методик обучения гиперактивных детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: гиперактивность, социальный, эмоциональный, мальчик, девочка, общество, образование, воспитание, метод, методика, диагностика, мультимодальный, когнитивный, арт-терапия, психолог, физиологический, импульсивный, внимание, дети, школа, концентрация.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim yoshidagi giperaktiv bolalar tengdoshlaridan juda faolligi va diqqatining beqarorligi bilan ajralib turadi. "Giperaktivlik" so'zi yunon tilidan olingan "giper" – juda ko'p, lotinchadagi "aktivus" – faol degan ma'noni anglatadi. Demak, giperaktivlik tom ma'noda faollikning ortishini bildiradi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalardagi giperaktivlik – bu maktabgacha ta'lim tashkilotida va uyda jismoniy faollikning yuqori darajasidir. Bu bolaning harakatga bo'lgan fiziologik ehtiyojlarining tabiiy ko'rinishi bo'lishi mumkin, ammo ziddiyatlarga bog'liq travmatik vaziyatlar va tarbiyadagi nuqsonlar ta'sirida ham yuzaga keladi va hayotning birinchi yillaridan yoki hatto oylaridan boshlab aniqlanishi mumkin. Bunday bolalar giperaktiv bolalar deb ataladi. Bolalarda giperaktivlikning keng tarqalgan sabablaridan biri qarama-qarshi tarbiya turidir, chunki ularga hamma narsani qilishga ruxsat beriladi va bolalar dastlab hech qanday ta'qiqni bilishmaydi.

Giperaktivlik tushunchasi g'arbda 150 yildan beri o'rganib kelinmoqda. Giperaktivlik yoki uning kontseptsiasining tarixiy rivojlanishiga nazar tashlash aslida qanchalik ko'p yutuqlarga erishilganligini tushunishga yordam beradi. Sandberg va Barton (1996) hozirgi giperaktivlik kontseptsiasining ildizlari haqida keng qamrovli sharh yozgan bo'lib, ushbu sharh metodologiyaning qisqacha xulosasi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Asr boshlarida Still (1902) va Tredgold (1908) hozir biz giperaktiv deb ataydigan bolalarning ilk tavsiflarini yozib qoldirganlar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi giperaktiv bolalar psixologiyasi va ularga ta'lim berish nazariyasi bo'yicha bir qator olimlar izlanishlar olib borgan. Ron Kurtus, Russell L. Barkley, Christina M. Benton, Asqarova N.A., Rasulova Z.A., Yakubova G.A., Bryazgunov I.P., E.V. Kasatikova, Yu.B. Gippenreyter, M. Passolfa, M.M. Bezrukix kabi



olimlar giperaktiv bolalar psixodiagnostikasi, giperaktivlikning maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda kelib chiqish sabablari va namoyon bo'lish shakllarini tadqiq qilgan.

Giperaktiv bolaning butun hayoti ma'lum bir kun tartibiga bo'ysunishi kerak. Rejim barcha bolalar uchun muhim, ammo giperaktiv bola uchun bu ikki baravar muhimdir. Qolgan tartibga solish mexanizmlari faqat maksimal tartiblilik sharoitida ishlashi mumkin. Ijtimoiy va madaniy odatlarning ("yaxshi odatlar") rivojlanishi faqat barcha zaruriy narsalar bir vaqtning o'zida amalga oshirilganda sodir bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari, maktab tarbiyachilari va ota-onalar bolaning kunning boshida hamda dars yoki sinf boshida eng yaxshi ishlashini eshlashlari kerak. Eng yomoni, u materialni kun oxirida yoki dars oxirida o'rganadi. Giperaktiv bolalar o'zlari yaxshi uddalaydigan narsani qilishni yaxshi ko'radilar. Ular qiyinchiliklarni yengishga intilmaydilar va qiyin vazifalar ularni qiziqtirmaydi. Shu sababli giperaktiv bolaga berilgan barcha ko'rsatmalar aniq va qisqa bo'lishi kerak, 10 so'zdan oshmasligi lozim. Aks holda, bola bu ko'rsatmani tushunmaydi, eslab qolmaydi va unga amal qilmaydi.

Ko'rsatmalar berishda bolaning oxirigacha tinglay olmasligini, uzoq vaqt davomida guruh qoidalariga bo'ysunmasligini va tez charchashini ham hisobga olish zarur. O'quv faoliyatini tashkil etishda quyidagi tizimli tadbirlarni amalga oshirish ahamiyatlidir: axborotni tizimli ravishda taqdim etish tizimli tashkil etilgan xotirani yaratadi, kerakli ma'lumotlarni izlashni osonlashtiradi va fikrlashni rivojlantiradi. Ma'lumotning bunday taqdimoti yodlashda materialni tizimlashtirish hamda e'tiborga tushadigan yukni kamaytiradi. Pedagoglar ko'pincha birinchi navbatda eng qiyin vazifani, keyin esa osonroq va yanada yengilroq narsani qilishni tavsiya qiladilar. Bu, albatta, o'ziga xos mantiqqa ega. Darslarning boshida miya faoliyati eng yaxshi holatda bo'ladi va bola hali charchamaydi. Bu boshqa bolalar uchun to'g'ri, ammo giperaktiv bolalar uchun emas. Agar bola ishning boshida qiyin vazifaga duch kelsa, u "taslim bo'ladi" va hech narsa qilmaydi. Farzandlarga, ayniqsa giperaktiv bolalarga uzun matnlarni o'qib berish tavsiya etilmaydi, chunki ular to'liq eshitmaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bolaga belgilangan qoidalarga rioya qilgani uchun mukofotlanishini tushuntirish yaxshi natijalarga olib keladi. Giperaktiv bolalar bilan eng samarali shug'ullanish – u juda yaxshi ko'radigan va yaxshi bajaradigan vazifalarni mustaqil bajarishga imkon yaratishdir. Shu o'rinda pedagoglarga quyidagilarni tavsiya qilish mumkin:

- giperaktiv bola bilan ishni individual tarzda tashkil etish, bunda asosiy e'tiborni bola diqqatining chalg'uvchanligiga qaratish;
- giperaktiv bolaning yaxshi xulqini rag'batlantirib borish;
- mashg'ulot davomida bolaning diqqatini chalg'ituvchi omillarni minimallashtirish va tarbiyachiga yaqin masofada bo'lishini ta'minlash;
- bolada qiyinchiliklar paydo bo'ladigan hollarda tarbiyachidan tez yordam olish imkoniyatini yaratib berish;
- o'quv mashg'ulotlarini aniq rejalashtirilgan tartibda tuzish;
- giperaktiv bolani maxsus kalendardan yoki kundalikdan foydalanishga o'rgatish;
- mashg'ulotda berilayotgan topshiriqlarni doskaga rasmlarini ilib qo'yish;
- ma'lum vaqt oralig'ida faqat bitta topshiriq berish;
- katta topshiriqni qismlarga ajratib berish va har bir qismning bajarilishini nazorat qilish;
- o'quv mashg'ulotlari orasida jismoniy mehnat hamda sport mashg'ulotlari uchun vaqt ajratish.

Giperaktiv bolalar talabchan, ammo ularga to'g'ri yondashilsa, yaxshi natijalarga erishish mumkin. Ular shunchaki ko'proq e'tiborga muhtoj. Aksariyat bolalar tabiatan faol bo'lsalar-da, giperaktiv bolalar doimo harakatda bo'lib, bir faoliyatdan ikkinchisiga tez o'tadilar. An'anaviy o'qitish usullaridan foydalanganda ular mashg'ulotlarga e'tibor berishda muammolarga duch keladilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

- **Qanday qilib dam olishni o'rgatish:** O'quv jarayonida aql-idrok va harakat bir-birini istisno qiladigan tushunchaga o'xshab ko'rinishi mumkin, ammo ko'plab tarbiyachilar uning afzalliklarini his qilishgan. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ongni rivojlantirish dasturlari va usullari sinfda foydali natijalar beradi. Nyu-Yorkdagi kichik yoshdagilar uchun maktab 2016-yilda yoga dasturini joriy qildi. Ishtirok etgan bolalar yoga bilan shug'ullanmagan bolalar guruhiga nisbatan GPA ko'rsatkichi sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Bu faqat baholar haqida emas. Maktabgacha yoshdagi bolalar orasida o'tkazilgan yana bir tadqiqot shuni



ko'rsatdiki, yoga bolalarga his-tuyg'ularini nazorat qilishda yordam beradi. Ushbu usul giperaktiv bola uchun tanasi va ongidagi mavjud vaziyatni his qilish va u bilan tinchlik o'rnatishni anglatadi. Yogada xotirjamlikka odatda meditatsiya texnikasi orqali erishiladi. Meditatsiya ongni chalg'itadigan narsalarni chetga surib, hozirgi vaqtda mavjud bo'lishga o'rgatadi. Agar siz bolalarni meditatsiya uchun juda yosh yoki beparvo deb hisoblasangiz, oddiy nafas olish va dam olish usullaridan boshlashingiz mumkin. Ular, shuningdek, diqqatni jamlangan ruhiy holatga olib keladi. Birinchidan, siz sinfda dam olishni va nafas olishni qanday amalga oshirishni bilishingiz kerak. O'z hududingizda yaxshi mutaxassis topib, uni bir nechta darslarga taklif qiling. Bolalarga dam olish va nafas olish texnikasini o'rgatish haqida ular bilan suhbatlashing. Dam olish texnikasini ijobiy vizual tasvirlar bilan birlashtiring. Ko'plab sportchilar o'z faoliyatini yaxshilash uchun vizualizatsiyaga tayanadilar. Giperaktiv bolalar bilan shug'ullanayotganingiz uchun ularga bog', plyaj yoki sokin o'rmon kabi tinchlantiruvchi sahnani tasavvur qilishlarini ayting.

- **Amalda o'rganishni rag'batlantirish:** Giperaktiv bolalar jarayonda ishtirok etganda yaxshiroq o'rganadilar. Ulardan o'z stolida xotirjam o'tirishlarini, ma'ruza tinglashlarini va sinovdan o'tishlarini kutish mumkin emas. Bu ular uchun juda qiyin. Bajarish har doim tinglashdan ko'ra yaxshiroqdir, shuning uchun siz ularning harakatini o'rganish faoliyatiga aylantirishingiz mumkin.
- **Ularning harakatlanishiga ruxsat berish:** Giperaktiv bolalar, ta'rifiga ko'ra, o'z joyida qolish qiyin. Ish stolida uzoq vaqt o'tirish ular uchun qiyin. Bu bolalar kinestetik bolalardir. Bu yomon narsa emas, balki ta'lim uslublaringizga yangi usullarni joriy qilish imkoniyatidir. Biror narsa so'ramoqchi bo'lganingizda, bolaga ismini aytib murojaat qilish o'rniga, unga to'pni muloyimlik bilan tashlang. Bu munozaralarga qiziqarli tus beradigan oddiy mashg'ulotdir. Yarim soat o'z stollarida o'tirgandan so'ng, bolalaringizni turishga, cho'zilishga va bir daqiqalik raqs tanaffusiga taklif qilish orqali ularni mukofotlang.
- **Ularni foydali bo'lishga o'rgatish:** Giperaktiv bolalar harakat qilishni xohlashadi va bu ular uchun zarur. Bolalarga xonadagi o'yinchoqlarni, kitoblarni, rasmlarni birga yig'ishni taklif eting. Bu ularning energiyasini foydali sohaga yo'naltirishga yordam beradi.
- **O'zingizning mukofot tizimingizni yaratish:** Siz barcha bolalardan namunali bo'lishini va ularda nima bo'lishidan qat'i nazar, o'rganish istagini namoyon etishini kuta olmaysiz. Biroq, siz bolalarni o'rganish istagini rag'batlantirishingiz mumkin. Aniq mukofotlarni taklif qilish orqali ularning motivatsiyasiga turtki berishingiz mumkin. Biroq, ularni vazifalarini bajarganliklari uchun mukofot olishga ko'nikib qo'yman. Haqiqiy ijobiy fikrlar ham yoqimli. Giperaktiv bolalar o'zlarini yaxshi tutishganda, ularni muvaffaqiyatlari uchun maqtang.
Qaysi usuldan foydalanishingizdan qat'i nazar, esda tuting: giperaktiv bolalar shunchaki bolalardir. Ular jiddiy bo'lolmaydi va har doim ko'rsatmalarga amal qila olmaydi. Muammoni hal qilish yo'lidagi birinchi qadam oddiy: tarbiyachi juda jiddiy bo'lishni bas qilishi kerak. Qiziqarli o'qitish usullari bilan siz giperaktiv bolalarning barcha energiyasini to'g'ri yo'nalishga yo'naltirishingiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'lim berish jarayonida, ya'ni giperaktiv bolalar bilan ishlashda bir qator muammolar kuzatiladi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, giperaktiv bolalar boshqa tengdoshlariga nisbatan aqliy qobiliyat jihatidan yuqori bo'lishi kuzatiladi. Ularning qobiliyatlarini aniqlash va to'g'ri yo'naltirish orqali sifatli ta'lim-tarbiya olishlari va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishlari uchun zamin yaratiladi.

Giperaktiv kichkintoylar jismonan yaxshi rivojlangan bo'lib, hatto tengdoshlariga qaraganda tezroq o'tirishni, emaklashni va yurishni boshlashlari mumkin. Avvaliga ota-onalar bu holatdan xursand bo'lishadi, ammo kelajakda bu divanlardan tez-tez yiqilish va ota-onalar tayyor bo'lmagan boshqa muammolarga olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatda ikkita ehtimoliy holat yuz beradi: yoki farzandingiz haqiqatan ham tez rivojlanmoqda, yoki bu giperaktivlikning belgilaridan biridir. Agar ikkinchi holat tasdiqlansa, muammo kelajakda yanada yaqqol ko'rinishi yoki boshqa belgilar orqali namoyon bo'lishi mumkin. Giperaktivlikning namoyon bo'lishi ma'lum bir biologik fon ustiga salbiy ijtimoiy ta'sirlar qo'shilganda kuchayadi. Bu esa nafaqat mavjud kamchiliklarni qoplash imkonini beradi, balki ularning yanada kuchayishiga ham zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umumiy psixologiya. P.I. Ivanov, M.E. Zufarova. Toshkent, 2008.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi: o'quv qo'llanma. X. Jalilova, M. Tursunova. Toshkent, 2017.
3. Bolalarda diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi psixodiagnostikasi. Asqarova N.A., Rasulova Z.A., Yakubova G.A. Zamonaviy ta'lim, 2016-yil.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi: o'quv qo'llanma. X. Jalilova, M. Tursunova. Toshkent, 2017.
5. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi: o'quv qo'llanma. X. Jalilova, M. Tursunova. Toshkent, 2017.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.